

XORAZM VILOYATI TURIZMINING GEOGRAFIK-REKREATSION SALOHIYATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Geografiya" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm viloyatining turizm salohiyatini chuqur tahlil qilinadi. Unda viloyatning geostrategik joylashuvi, iqlimi xususiyatlari, asosiy turistik obyektlarning joylashuvi va ularning tabiiy landshaft bilan uyg'unligi atroficha ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanishi, turizm mahallalari tashkil etishning geografik asoslari va geografik omillarning sayyohlar oqimiga ta'siri batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, Ichan Qal'a, Qal'ajiq qal'a, turizm mahallalari, tabiiy-rekreatsion salohiyat, joylashuv, iqlim, ekoturizm, sayyohlik yo'nalishlari.

Xorazm viloyati Markaziy Osiyoning qadimiy va strategik ahamiyatga ega hududida, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan. Viloyat asosan cho'l zonalari (Qoraqum cho'li bilan chegaradosh) va Amudaryo vodiysi relyefini o'z ichiga oladi. Bu geografik joylashuv uning iqlimi va tabiiy landshaftiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xorazmning iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozda juda issiq, qishda esa sovuq bo'ladi. Biroq, bu iqlimi xususiyatlarga qaramay, viloyatning boy tarixi va noyob madaniy merosi sayyohlar uchun yil davomida jozibador bo'lib qolmoqda. Suv resurslari, ayniqsa Amudaryo, hududning qadimiy sivilizatsiyasining shakllanishida va qishloq xo'jaligining rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan, bu esa o'z navbatida turistik infratuzilmaning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Turizm global iqtisodiyotning muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali

foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda".[1] Shu bois, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, ayniqsa, tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish va turistik obyektlarning holatini yaxshilash orqali bu soha yanada takomillashtirilmoqda. Xorazm viloyati O'zbekistonning turizmi rivojlangan viloyatlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan o'zining boy tarixi va noyob tabiat bilan ko'pchilikda qiziqish uyg'otib kelgan Xorazm, bugungi kunda 256 ta madaniy meros obyektini o'z ichiga oladi, shulardan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 67 tasi haykaltaroshlik, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas joylar hisoblanadi.[3]

Viloyatning asosiy turistik markazi, "Osmon ostidagi muzey" sifatida e'tirof etilgan Xiva shahri va uning markazidagi "Ichon Qal'a" muzey-qo'riqxonasi hisoblanadi. Xiva shahrining geografik joylashuvi uning tarixiy ahamiyatini oshirgan, chunki u qadimiy Buyuk Ipak Yo'lining muhim chorrahalaridan birida joylashgan edi. Bu joylashuv shaharni savdo va madaniyat markaziga aylantirgan. Ichon Qal'a esa Xiva shahar markazida zinch joylashgan me'moriy yodgorliklar majmuasi bo'lib, bu geografik konsentratsiya sayyoohlarga yagona, ixcham hududda ko'plab diqqatga sazovor joylarni (minoralar, madrasalar, masjidlar, maqbaralar) tomosha qilish imkonini beradi.[4] Bu qulaylik turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki sayyoohlар ko'p vaqtini transportga sarflamay, piyoda yurib, madaniy boyliklarni o'rganishlari mumkin.

Xorazm viloyatida nafaqat Xiva shahri, balki boshqa tumanlarda ham sayyoohlarni jalb qiladigan go'zal joylar mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-sentabrdagi 546-sون "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori viloyatning turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni jadal rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilashni ko'zda tutadi. Qarorga ko'ra, Xiva, Yangiariq, Shovot, Xonqa, Bog'ot kabi tumanlarda mavjud imkoniyatlardan

foydalinish hamda ularni yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu hududlarda turistik infratuzilmani yaxshilash, jumladan, yangi ish o'rirlari yaratish ko'zda tutilgan.[2] Masalan, Bog'ot tumani ham turizm rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Bu yerda "Qal'ajiq qal'a" maskani joylashgan bo'lib, bu yerdagi ko'l suvi shifobaxsh hisoblanadi. Sog'lomlashtirish maqsadida bu yerga mahalliy aholidan tashqari xorijliklar ham tashrif buyurmoqdalar. Bu qal'a ham qadimiy bo'lib, ko'pchilikda qiziqish uyg'otib kelmoqda. Hozirgi kunda bu hududga olib boradigan yo'llarni ta'mirlab, rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan. Bu esa geografik jihatdan Xiva markazidan uzoqroq joylashgan obyektlarga kirish imkoniyatini yaxshilaydi va viloyat bo'ylab sayyoohlар oqimini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Xiva tumanidagi "G'ovuk" MFYda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali 85 ta yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. G'ovuk hududida ekoturizm zonasi tashkil etilgan va sayyoohlarni e'tiborini tortib kelmoqda.[2] Bu esa viloyatning tabiiy landshaftlari asosida yangi turistik yo'nalishlarni yaratish imkonini beradi.

Prezident qarorlariga muvofiq, turizm salohiyati rivojlangan va turizm drayveri sifatida rivojlantirish rejalashtirilgan tumanlarda quyidagi turizm mahallalari tashkil etish rejalashtirilgan:

Bog'ot tumani: "Qalajiq qal'a" MFY

Xiva tumani: "G'ovuk" MFY

Xiva shahri: "Yangi turmush" MFY, "Qumsayqa" MFY, "Kaptarxona" MFY, "Ichan qal'a" MFY, "Mevaston" MFY, "Kalta minor" MFY, "Yangi hayot" MFY, "Sangar" MFY

Shovot tumani: "Beshmergan" MFY

Yangiariq tumani: "Ostona" MFY, "Ulug'bek" MFY

Bu mahallalar viloyatning turizm geografiyasini kengaytirib, avvallari kam e'tibor qaratilgan hududlarni turistik aylanmaga kiritadi. Bu esa aholi bandligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shami.

Xorazm viloyati tarixiy va madaniy turizmdan tashqari, tabiiy sharoiti va qishloqlardagi hayot tarziga ko'ra qishloq turizmini, ekoturizmni ham rivojlantirish salohiyatiga ega. Viloyatning Amudaryoga yaqin joylashuvi uning agro-ekoturizm va suv bo'yidagi dam olish uchun potentsialini oshiradi. Mavjud tabiiy-rekreatsion sharoitlar, milliy va hunarmandchilik buyumlari ko'rgazmalari tashkil etish, sayyoхlar uchun turli bog'larga tashrif buyurib sayr qilish juda katta qiziqish uyg'otadi. "G'ovuk" hududida ekoturizm zonasining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Cho'l landshaftlari, Amudaryo bo'yлari va vohaning o'ziga xos ekotizimlari ilmiy-tadqiqot va ekologik turizm uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Xorazm viloyatining turizm salohiyati nafaqat uning boy tarixiy-madaniy merosi, balki qulay geografik joylashuvi, tabiiy-rekreatsion imkoniyatlari va strategik rivojlanish rejali bilan ham belgilanadi. Xiva shahridagi "Ichon Qal'a"ning ixcham joylashuvi sayyoхlar uchun qulaylik yaratgan bo'lsa, viloyatning boshqa tumanlarida, jumladan Bog'ot va Yangiariq tumanlarida yangi turistik marshrutlarni ochish geografik diversifikatsiyani ta'minlaydi. Turizm mahallalari tashkil etish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash va ekoturizmni rivojlantirish orqali Xorazm viloyati turizm sohasida yanada yuqori cho'qqilarni zabit etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida viloyat iqtisodiyotiga sezilarli foyda keltiradi va sayyoхlar oqimini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent-2020
2. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Loyiha. Toshkent-2014
3. "O'zbekturizm" MK ning Xorazm viloyati mintaqaviy bo'limi hisobot ma'lumotlari
4. Hayitova O, "Xorazm viloyati turizmining rivojlanish istiqbollari" "Экономика и социум" №1(128)-1 2025